

UCHRASHUV GURUHINI TASHKIL ETISH

Sadullayeva Odila

O'zbekiston Xalqaro Islomshunoslik akademiyasi Mumtoz

sharq filologiyasi fakulteti 3-kurs talabasi

Tel: +998946487677

Odilasadullayeva89@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada ijtimoiy psixologiya nuqtayi nazaridan uchrashuv guruhlarini tashkil etish jarayoni tahlil qilinadi. Tadqiqotda guruh dinamikasi, shaxslararo munosabatlar, yetakchilik va muloqot omillarining uchrashuv samaradorligiga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, guruh a'zolari o'rtasida ijtimoiy rollar, motivatsiya va psixologik iqlimning ahamiyati ochib berilgan hamda samarali uchrashuv guruhlarini shakllantirish bo'yicha amaliy xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy psixologiya, uchrashuv guruhi, guruh dinamikasi, shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy rollar, yetakchilik, konformizm, motivatsiya, muloqot, psixologik iqlim.

Аннотация. В данной статье анализируется процесс организации групповых собраний с точки зрения социальной психологии. Исследование освещает влияние групповой динамики, межличностных отношений, лидерства и коммуникационных факторов на эффективность собраний. Также раскрывается важность социальных ролей, мотивации и психологического климата среди членов группы, и предлагаются практические выводы по формированию эффективных групповых собраний.

Ключевые слова: социальная психология, групповые встречи, групповая динамика, межличностные отношения, социальные роли, лидерство, конформизм, мотивация, коммуникация, психологический климат.

Abstract: This article analyzes the process of organizing meeting groups from the perspective of social psychology. The study highlights the impact of group dynamics, interpersonal relationships, leadership, and communication factors on meeting effectiveness. It also reveals the importance of social roles, motivation, and psychological climate among group members, and provides practical conclusions on the formation of effective meeting groups.

Keywords: social psychology, meeting group, group dynamics, interpersonal relationships, social roles, leadership, conformism, motivation, communication, psychological climate.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda guruhliy faoliyatning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ta'lim, ilm-fan, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarda uchrashuv guruhlarini shaxslararo muloqotni yo'lga qo'yish, tajriba almashish hamda samarali hamkorlikni ta'minlashning muhim vositasi hisoblanadi. Ijtimoiy psixologiya ushbu jarayonlarni shaxs, guruh va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sir nuqtayi nazaridan o'rganadi. Shu bois uchrashuv guruhlarini ilmiy asosda tashkil etish dolzarb masala sanaladi.

Uchrashuv guruhlarini ijtimoiy psixologiyada kichik guruhlar tarkibiga kirib, ular o'ziga xos psixologik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bunday guruhlarda a'zolar o'rtasida bevosita muloqot, o'zaro ta'sir va emotsional bog'liqlik mavjud bo'ladi. Guruh a'zolarining xatti-harakati, qarorlari va munosabatlari ko'p jihatdan guruh ichidagi ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlar bilan belgilanadi. Uchrashuv jarayonida shaxslar o'z ijtimoiy rollarini namoyon etadi, bu esa guruh faoliyatining muvozanatli va samarali kechishiga xizmat qiladi. Uchrashuv guruhini tashkil etishda eng muhim omillardan biri — guruh maqsadining aniqligidir. Aniq va tushunarli maqsad guruh a'zolarini birlashtiradi

hamda ularning faol ishtirokini ta'minlaydi. Ijtimoiy psixologiya nuqtayi nazaridan, umumiy maqsad mavjud bo'lgan guruhlarda ijtimoiy birdamlik kuchliroq bo'ladi. Shuningdek, ishtirokchilarni tanlashda ularning psixologik mosligi, muloqotga kirisha olish qobiliyati va ijtimoiy tajribasi muhim ahamiyat kasb etadi. Guruh faoliyatida shaxslararo munosabatlar markaziy o'rin egallaydi. Uchrashuv jarayonida ishonch, o'zaro hurmat va ochiq muloqot mavjud bo'lsa, guruh ichida ijobiy psixologik iqlim shakllanadi. Aksincha, nizolar, tushunmovchiliklar va salbiy emotsiyalar guruh samaradorligini pasaytiradi. Shu bois uchrashuv guruhlarini boshqarishda nizolarni oldini olish va konstruktiv muloqotni rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi. Yetakchilik fenomeni uchrashuv guruhlarida alohida ahamiyatga ega. Yetakchi shaxs guruh faoliyatini yo'naltiradi, a'zolari faollikka undaydi va ijtimoiy tartibni saqlashga xizmat qiladi. Ijtimoiy psixologiyada yetakchining shaxsiy fazilatlari, kommunikativ kompetensiyasi va ijtimoiy ta'sir ko'rsatish qobiliyati guruh muvaffaqiyatining muhim omili sifatida qaraladi. Samarali yetakchilik guruh a'zolarida motivatsiyani oshiradi va ijobiy psixologik muhitni mustahkamlaydi. Motivatsiya uchrashuv guruhlarining barqaror faoliyatini ta'minlovchi asosiy psixologik omillardan biridir. Guruh a'zolarining ichki ehtiyojlari va tashqi rag'batlantirish vositalari ularning faol ishtirokini kuchaytiradi. Ijtimoiy psixologiyada motivatsiyaning yuqori darajasi guruh hamkorlik va mas'uliyat hissining shakllanishiga olib keladi. Shu bilan birga, qo'llab-quvvatlovchi va ijobiy psixologik iqlim guruh a'zolarining o'zini erkin his etishiga va fikr bildirishiga imkon yaratadi.

Uchrashuv guruhlarini tashkil etish jarayonida ko'pincha bir qator ijtimoiy-psixologik muammolar yuzaga keladi. Eng asosiy muammolardan biri guruh a'zolari o'rtasida aniq maqsadning yetarli darajada shakllanmaganligidir. Maqsadning noaniqligi ishtirokchilarning faolligini pasaytiradi, mas'uliyat hissini susaytiradi va uchrashuvlarning samarasiz kechishiga olib keladi. Shuningdek, guruh a'zolari o'rtasida shaxslararo nizolar, muloqotdagi uzilishlar va o'zaro ishonchning yetishmasligi ham keng tarqalgan muammolar sirasiga kiradi. Yana bir muhim muammo — yetakchilikning to'g'ri tashkil etilmasligidir. Yetakchining passivligi yoki haddan tashqari avtoritarligi guruh

muvozanatini buzadi, ayrim a'zolarining chetlab qolishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, motivatsiyaning pastligi, guruh ichida ijobiy psixologik iqlimning shakllanmaganligi va ijtimoiy rollarning aniq taqsimlanmaganligi ham uchrashuv guruhlarining samaradorligini pasaytiradi. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun, avvalo, uchrashuv guruhining aniq va tushunarli maqsadini belgilash zarur. Maqsad barcha ishtirokchilar tomonidan qabul qilinishi va ular uchun psixologik ahamiyat kasb etishi lozim. Guruhni tashkil etishda ijtimoiy-psixologik moslikni hisobga olish, ochiq va konstruktiv muloqotni yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega.

Yetakchilik masalasida demokratik va hamkorlikka asoslangan boshqaruv usullaridan foydalanish tavsiya etiladi. Bu usul guruh a'zolarining faolligini oshiradi, ularning fikr bildirishiga imkon yaratadi. Motivatsiyani kuchaytirish uchun ichki rag'batlantirish, ya'ni o'zini namoyon etish, hurmat va e'tirof omillariga tayanish lozim. Ijobiy psixologik iqlimni shakllantirish orqali guruhda ishonch va o'zaro qo'llab-quvvatlash muhiti yaratiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, uchrashuv guruhlarini tashkil etish jarayoni murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa bo'lib, u shaxslararo munosabatlar, guruh dinamikasi, yetakchilik va motivatsiya kabi omillar bilan uzviy bog'liqdir. Ijtimoiy psixologiya tamoyillariga asoslangan holda tashkil etilgan uchrashuv guruhleri yuqori samaradorlikka erishadi va barqaror ijtimoiy munosabatlarni shakllantiradi. Mazkur maqolada bayon etilgan nazariy qarashlar va xulosalar ta'lim, ilmiy va ijtimoiy amaliyotda guruhiy faoliyatni tashkil etishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Ismoilova, Nurjahon 1-58 Ijtimoiy psixologiya: o‘quv qo‘llanma / N. Ismoilova, D. Abdullayeva; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. — Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013. - 168 b

V. Karimova. Ijtimoiy psixologiya va amaliyot. — T.: 2009

Karimova.V.M. Sotsiyal psixologiya— Toshkent., 2022

G‘oziyev.E.G F. Ijtimoiy psixologiya. — Toshkent., 2020.